

MAHOBATLI RANGTASVIR SAN'ATI USTA VAKILI CHINGIZ AXMAROV IJODI VA UNING RANGTASVIR TARAQQIYOTIDAGI XIZMATLARI

To'xtayeva Madinabonu Olimovna

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

Mahobatli rangtasvir mutaxassisligi 1-kurs magistri.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14632342>

Annotatsiya. Mavzuning dolzarbligi shu bilan belgilanadiki, unda mahobatli rangtasvir san'atining shakllanishida muhim hissa qo'shgan Chingiz Axmarov ijodi tahlil qilinadi.

O'zbekiston monumentalist rassomi ijodi va uning uslublari o'rganib chiqildi. Mazkur mavzuni to'liq yoritishga qaratilgan bu maqola bo'lajak mahobatli rangtasvir rassomlar o'zlashtirishi lozim bo'lgan ma'lumotlar haqida yoritilgan, shuningdek, amaliy ishlashga o'rgatish usullari kabi masalalarga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at, mahobatli rangtasvir, badiiy jarayon.

ТВОРЧЕСТВО МАСТЕРА МОНУМЕНТАЛЬНОЙ ЖИВОПИСИ ЧИНГИЗА АХМАРОВА И ЕГО ЗАСЛУГИ В РАЗВИТИИ ЖИВОПИСИ

Аннотация. Актуальность темы определяется тем, что в ней анализируется творчество Чингиза Ахмарова, внесшего значительный вклад в становление монументальной живописи. Было изучено творчество узбекского художника-монументалиста и его стили. В этой статье, призванной полностью осветить эту тему, рассказывается об информации, которую должны усвоить будущие художники-монументалисты, а также рассматриваются такие вопросы, как методы обучения практической работе.

Ключевые слова: Изобразительное искусство, монументальной живописи, художественный процесс.

THE WORK OF THE MASTER OF MONUMENTAL PAINTING CHINGIZ AKHMAROV AND HIS CONTRIBUTIONS TO THE DEVELOPMENT OF PAINTING

Annotation. The relevance of the topic is determined by the fact that it analyzes the work of Chingiz Akhmarov, who made a significant contribution to the formation of monumental painting. The work of the Uzbek muralist and his styles were studied. This article, designed to fully cover this topic, describes the information that future muralists should learn, as well as discusses issues such as methods of teaching practical work.

Keywords: Fine art, monumental painting, artistic process.

Tasavvur qilinadiki, san'at borlig'ining har bir shakli-rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika, rasm-dunyoni o'zlashtirishda faqat ungagina tushunarli bo'lgan imkoniyatlar va iste'dodlarni to'liq ochib bergandagina mustaqil usul va tur bo'ladi va bu faqat rivojlanishning ma'lum bosqichida, ma'lum sharoitlardagina yuz beradi. San'at tarixi uning usullari va turlarining shakllanish tarixi kabi madaniyatni o'rganishning qiziq va zarur sohasidir.

Ma'lum tarixiy rivojlanish yo'lini bosib o'tgan san'at turi-tasviriy san'atdir. Mahobatli rangtasvir – tasviriy san'atning shunday bir turidirki, unda rang eng asosiy o'rinni egallaydi.

1990 yillargacha bo'lgan mahobatli rangtasvir “Mahobatli targ'ibot rejasi”, deb nomlanuvchi mafkura hukmronligi asosida shakllandi. Aynan shu, ya'ni tasviriy san'atning bir muncha siyosiyashtirilgan qobig'ida ishlash hammadan ko'ra rassomlar uchun qiyin kechdi. Ular uslubi bir taxlitda bo'lib, plakat tilida bayon qilishga undovchi topshirilgan mavzu asosida asar yaratishga majbur edi. Lekin, bu davrda rassomlarning ichki dunyosini namoyon etuvchi haqiqiy va badiiy yorqin asarlar yaratildi. Ular orasida, so'zsiz Ch.Axmarov, B.Jalolov va boshqa rassomlar tomonidan yaratilgan mahobatli rangtasvir asarlari mavjud.



Mahobatli rangtasvir san'ati ustida olib borilgan tadqiqot ishlari shuni tasdiqlaydiki, O'zbekistonda hozirda ham uning ko'pgina turlari saqlanib qolgan. Bu vaqtga kelib, shuningdek, vitraj san'ati asarlari, shisha, sopol va kandakorlik buyumlarida ishlangan bo'rtmalarda makoniy kompozitsiyalar yaratish, koshinli namoyonlar va bezakli plastika san'ati shakllandi. San'atning barcha turlari bu davrda keng ko'lamda rivojlanishiga qaramay, mahobatli rangtasvirda badiiy jarayon birmuncha qiziqarli va serharakatlik bilan kechdi.

991-2001 yillardagi O'zbekiston mahobatli rangtasviri o'z rivojiga ko'ra yangi bosqichni egallaydi. Uslubiy loyihada miniatyura rangtasvirining ta'siri ahamiyatli o'rin egallaganligi; vatanimizning tarixiy va madaniy o'tmishi bilan bog'liq bo'lgan mavzularga murojaat etilishi zamonaviy mahobatli rangtasvir san'atining alohida xususiyatlari bo'lib qoldi. San'atning bu turining kelgusidagi rivojida mahobatli rangtasvir ustalarining ijodiy g'ayrati va zamonaviy bosqichda talabchan harakatlari kafolat bo'lib qoladi.¹

¹ library.ziynet.uz

O'zbekiston maxobatli rangtasvirida Ch.Axmarov, A.Aliqulov, B.Jalolov samarali ijod etgan. Mazkur maxobatli rangtasvirchilarning xar biri uziga xos ijodiy uslubga, turli mavzularning uziga xos badiiy yechimiga egadirlar. Ularning ijodlari milliy maxobatli rangtasvirda aloxida uringa ega. O'zbekiston tasviriy san'atida miniatyuraga xos ajoyib rang polotnolar yaratib milliy san'atimizning rivojlanishiga ulkan xissa qo'shgan Chingiz Abduraxmonovich Axmarov o'z ijodiy yo'li va san'at maktabi mavjud. U yoshlik yillaridanoq Qarshi, Samarqand shaxridagi sharqona me'morchilik obidalari, amaliy san'at sirlari bilan astoydil tanishadi. Chingiz Axmarov o'zbek xalqining tarixi, uning an'anaviy san'at merosiga qiziqadi.²



Uz ijodida miniatyura an'alarini maxorat bilan qo'llay olgan maxobatli rangtasvir ustasi Ch.G.Axmarovning “Zulfiya” (1965), “A.Navoiy shogirdlari bilan” (1968), “Nodira” (1975), “Buxoro raqsi”, “X.Nosirova Shirin rovida” kabi asarlari dastgoxli asarlari bilan bir qatorda, Alisher Navoiy nomidagi Davlat opera va balet teatri, Beruniy nomdagi Davlat Sharqshunoslik instituti, O'zbekiston Milliy teatri, O'zbekiston metropolitenidagi bekatlar va boshqa bir qator maskanlarning devorlarida maxobatli rangtasvir na'munalari mavjud.

Chingiz Axmarov butun umri davomida maxoabtli asarlari uchun xisobsiz chizmatasvir, kartina, eksizlar xamda tasodifiy qoramalar yaratgan. Karton, mato kabi an'anaviy materiallar bilan bir qatorda Ch.Axmarov yog'och taxtachalarda bir qator portret asarlar, kafelda tasvirli lavxalar yoki sopol va chinni buyumlarga suratlar xam yaratgan.

Ular bugungi kunda muzeylarda, rassom va shogirdlarning shaxsiy kolleksiyalarida, yoki rassom tomonidan sovg'a qilingan shaxslarning to'plamlarida saqlanmoqda. Ularning aksariyati devoriy



² Н.Ойдинов. Узбекистон тасвирий санъати тарихидан лавхалар. - Тошкент: “Укитувчи” 1997 - Б.94. 51 б.

surat, badiiy film, kitob illyustratsiyalarga eskizlar bo'lib, rassomning qiymati baland va original asarlari xisoblanadi. Akbar Xakimovning izlanishlari natijasida Ch.Axmarovning Toshkentdagi turli shaxsiy kolleksiyalarda saqlanuvchi 300 dan ortiq asarlari foto lavxalarga muxrlanib, annotatsiya yozib chiqilgan. Jumladan, rassomning yaqin shogirdlaridan biri, rassom Sodiq Raxmonning tuplamidan 100 dan ortiq ishlar, Chingiz Axmarov bilan tushilgan fotosuratlar va xatlar, musavvirning tutingan nevarasi Shaxnoza Abdullayevadan 60 dan ortiq ishlar (ular orasida Ch.Axmarovning Sharq go'zallarini suratini ishlagan ikkita sopol idishlar), yana bir shogirdi Javlon Umarbekovning shaxsiy kolleksiyasidan 43 ta kartina va chizmatasvirlar, Buxorodagi devoriy suratlarni ishlashda assistentlik qilgan, rassomning shogirdi Akmal Ikromjonovning to'plamidan to'rtta asarni topishga muvaffak bo'lingan.

Bu topilmalar musavvir ijodini obyektiv tarzda kengroq taxlil qilishga yordam beradi. Akbar Xakimov tomonidan topilgan artefaktlar muzeylardagi (Toshkent, Samarqand, Buxoro), O'zbekiston Badiiy Akademiyaning Badiiy ko'rgazmalar direksiyasida saqlanuvchi kolleksiyalardagi asarlar va nashr etilgan manbalar Chingiz Axmarov ijodi, uning janrlar doirasi, plastik va texnologik usullari xamda turli ijodiy bosqichlari xaqida fikr yuritishga asos bo'ldi.

Chingiz Axmarovning maxobatli asarlari avvaldan tadqiqotchilarning e'tibor markazida bo'lgan. Rassom 1930 yillarning boshlaridan Samarqanddagi mashhur "Izofabrikada" "izorabotnik" sifatida yangi sotsialistik xayotni tasvirlashdagi maxobatli tashviqot devoriy suratlar yaratish jarayonida qatnashgan. Biroq, mazkur davrdagi ishlari saqlanib qolmagan. Chingiz Axmarovning eng erta maxobatli ishlaridan biri xamda rassomning ijodiy taqdiri katta axamiyatga ega bo'lgan asarlardan biri 1944-1947 yillarda yaratilgan Toshkentdagi Alisher Navoiy nomidagi Opera va balet teatri devoriy suratlari xisoblanadi.

Afsuski, mazkur devoriy suratlarni yaralish jarayonidagi bosqchlarni o'rganish uchun juda kam manbaa, katta miqdordagi eskizlardan bir nechtasigina saqlanib qolgan. Shu eskizlar xam to'rtta asosiy suratning kompozitsiya va syujet yechimi qay tarzda o'zgarib borganligini namoyon etadi.

Chingiz Axmarov ijodining salmoqli merosini maxbatli rangtasvir asarlari tashkil etadi va tabiiyki rassom ijodiga e'tirof xam aynan mazkur asarlar orqasidandir. Biroq, aksariyat devoriy suratlarning bugungi kundagi saqlanish holati xar qanday kishida xavotir xissini uyg'otadi. Masalan, milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi, A.Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi, Sharqshunoslik institutidagi ishlarning axvoli qonikarli emas. Angren yaqinidagi Tashkent kabel zavodi oromgoxi joylashgan Lashkerek maskanidagi devoriy suratlarning xolati

ayanchli ahvolda. Rassomning maxobatli asarlarini o'rganish, ularni tadqiq etish natijasida mazkur muammolarning topilishi xam kelgusida bu masalalarning yechimini topishga e'tibor qaratishga undaydi.

Chingiz Axmarov tomonidan qoldirilgan ko'p sondagi dastgohli va maxobatli ishlardan iborat merosdagi obraz va syujetlar hayratlanarli darajadagi garmonik ansamblni tashkil qiladi.

Ularning barchasi badiiy nuqtai nazardan juda qiziqarlidir. Rassom obrazlari olamidagi bo'lib bo'lmas yakdillik bir savolni paydo qiladi - rassom uchun nima muhim, dastgohli kartina yoki mahobatli rangtasvir. Biroq, rassom qalamiga mansub rangtasvirning xar ikkala ko'rinishidagi asarlarini tomosha qilar ekansiz, nozik chizmatasvir maxorati va sezgir kolorist malakasisiz maxobatli devoriy suratlar yaratib bo'lmasligiga guvoh bo'lish mumkin.

Va, aksincha, Ch.Axmarovning monumentalist sifatidagi keng panoram tafakkuri, uning majmuaviy yechim topish mahorati va mavzuni masshtabda ko'ra olish iqtidorisiz musavvirning nozik chizmatasvir va nafis uslubga ega dastgohli asarlari yaratilmagan bo'lar edi. Rassom ijodiga mansub asarlarni qurishdan saqlar ekanmiz, ularni kelajak avlodga yetkazish, umrboqiyiligini ta'minlash yo'lida ma'suliyatni xam zimmamizga olishni unutmasligimiz zarur.

REFERENCES

1. Abdullayev N. O'zbekiston san'ati tarixi. – T.: O'zbekiston faylasuflar ilmiy jamiyati, 2007. - 236 b.
2. Н.Ойдинов. Узбекистон тасвирий санъати тарихидан лавхалар. - Тошкент: “Укитувчи” 1997 - Б.94. 51 б.
3. Zarifova Dilfuza Omon qizi., “Ranglarning fazoviy birikmalari va xususiyatlari”. Educational Research in Universal Sciences. T.: 2023.
4. “Р.Хасанов, “Тасвирий санъат асослари”, Тошкент, 2009 й. 11 б
5. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т.: Давлат миллий нашриёти, 2006.